

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

2013-yil

29-aprel

N:17

(66922)

# Tong Yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## EZGU ISHLARGA KAMARBASTA

Donishmandlar farzand tarbiyasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashish zarurligini uqtiradilar. Tarbiya o'qib-o'rgatishdangina iborat emas, balki yosh avlodning sog'lom ulg'ayishi uchun qayg'urish, g'amxo'rlik qilish ham uning ajralmas qismidir. Ayni shu ezgu maqsad yo'lida qator qaror va davlat dasturlari qabul qilinib, hayotga keng tatbiq etildi. Jumladan, 1993-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hukumatga qarashli bo'lmagan «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. O'tgan yillar mobaynida jamg'arma tomonidan yurtimizda yosh avlod salomatligini ta'minlash, ularning aqliy va ma'naviy kamoloti uchun qulay shart-sharoit yaratish, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida ibratli ishlar amalga oshirildi. Yurak, yuz-jag' sohasida tug'ma nuqsoni bo'lgan minglab bolalar jamg'armaning bevosita ko'magi bilan yurtimiz va dunyoning ko'plab zamonaviy klinikalarida o'z salomatliklarini tiklaganliklari bu yo'lida qilingan eng xayrli ishlardan bo'ldi.

Davomi 2-betda

## YOSHLARIMIZGA ISHONAMIZ!

Ma'lumki, Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq Prezidentimiz boshchiligida yosh avlod ta'lim-tarbiyasi yo'lida uzoqni ko'zlab, aniq maqsadli islohotlar olib borilmoqda. Umumta'lim maktablari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ular qiyofasi tubdan o'zgarmoqda. Amaliyotga tatbiq etilgan ta'limning «o'zbek modeli» jahon miqyosida katta qiziqish bilan o'rganilib, uning afzalligi xalqaro ekspertlar tomonidan ham yuqori baholanmoqda.

Maktab o'quvchilarining kimyo fani bo'yicha 47-xalqaro Mendeleev olimpiadasiga oradan besh yil o'tib, yana Toshkent shahrimiz mezbonlik qilayotgani yurtimiz ta'lim tizimi rivojining jahon miqyosidagi yana bir e'tirofidir.

Davomi 2-betda



## EZGU ISHLARGA KAMARBASTA

(Boshi 1-betda)

Kuni kecha «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etilganining 20 yilligiga bag'ishlangan «Sog'lom avlod — millat kelajagi» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston parlamenti a'zolari, vazirlik va idoralar, jamoat birlashmalari rahbarlari, jamg'arma va uning tarkibiy bo'linmalari xodimlari, mamlakatimiz va boshqa davlatlar tibbiyot muassasalari mutaxassislari, jamg'armaning hamkorlari — xalqaro tashkilotlar vakillari, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy diplomatlar hamda OAV vakillari ishtirok etishdi.

Prezidentimiz Islom Karimovning konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan



tabrigini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.Sultonov o'qib eshittirdi. Sohaning bir guruh fidoyi xodimlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, «Turkiston» saroyida «Mehribonlik uy»lari bolalar ijodiy jamoalari ishtirokida bayram konserti namoyish etildi.

Sa'dullo TURSINOV

(Boshi 1-betda)

### YOSHLARIMIZGA ISHONAMIZ!

Bu sa'y-harakatlarning bari yosh avlodning zamonaviy asosda puxta bilim olishi, ma'nau va jismonan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgandir. Bunday yuksak e'tibor, g'amxo'rliklar tufayli yoshlarimiz ilm-fan, san'at, sport yo'nalishlarida intellektual salohiyat, iqtidor-u qobiliyatlarini to'la namoyon etishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

O'tgan haftada poytaxtimizda boshlangan xalqaro Olimpiadada O'zbekiston, Belarus, Vengriya, Ozarbayjon, Makedoniya, Rossiya, Ruminiya, Saudiya Arabistoni kabi 17 mamlakatdan kelgan 117 nafar bilimdonlar ishtirok etishyapti.

Ertaga munosib taqdirlanadigan g'olib jamoalar qatorida yurtimizning bilimli, zukko o'g'il-qizlari ham, albatta, bo'ladilar, degan umiddamiz.

Zero, biz yoshlarimizga ishonamiz!



«Kitobsevarlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichiga borishini eshitgan Shahinabonuning ko'ziga allamahalgacha uyqu kelmadi.

Qanday ham uxlasin, axir ertaga yurtimizdagi bilimdon, zukko, kitobsevar tengdoshlari bilan bellashgani boradi-ku!..

Respublika Bolalar kutubxonasida bo'lib o'tgan oilaviy kitobxonlikni targ'ib qiluvchi mazkur tanlov juda qiziqarli tarzda o'tdi. Bir necha shartlar bo'yicha bellashgan biri-biridan zukko, bilimli kitobsevarlar orasidan eng saralarini saralash oson bo'lmadi. Hakamlar hay'ati a'zolari uzoq munozaradan so'ng oliy o'ringa Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-maktabning 8-sinf o'quvchisi Komila Shoimovani munosib topishdi. Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 2-maktabning 8-sinf o'quvchisi Komila Saisiyeva va Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 1-maktabning 9-sinf o'quvchisi Shahnoza Jonibekova 1-o'ringa, Toshkent shahar,

Hamza tumanidagi 216-maktabning 8-sinf o'quvchisi Iroda Abdusattorova va Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus tumanidagi 1-maktabning 9-sinf o'quvchisi Aysha Reymbayeva 2-o'ringa sazovor bo'lishdi.

Tanlovning eng yosh ishtirokchisi namanganlik Muxlisa



## KITOBSEVARLAR BAHSI

Mamajonovanning zukkoligi, hozirjavoblighi barchaning e'tiborini tortdi. Hozirda 5-sinfda o'qishi lozim bo'lgan bu qizaloq bilimi va salohiyati tufayli 7-sinfda a'lo baholarga tahsil olayotgan ekan. O'zidan katta ishtirokchilar bilan bilim va ijod bobida bemalol bellashgan Muxlisaaga kompyuter savodxonligi borasidagi bilimlarining biroz sayozligi pand berib qo'ydi. Shunday bo'lsa-da, tushkunlikka tushmay, bu boradagi bilimlarini yanada mustahkamlab, kelasi yili mazkur tanlovda yana ishtirok etishga ahd qilgan Muxlisaning tirishqoqligi, intiluvchanligiga havas qilsa arziydi.

Buxorolik iqtidorli, intiluvchan

tengdoshlarimizdan biri bo'lgan Shahinabonu Mahmudova bilan shu tadbirda tanishib qoldik.

U tanlovda faol ishtirok



etib, III darajali Diplom bilan taqdirlandi. Kogon shahridagi 9-umumta'lim maktabining 9-sinfida, shuningdek, 4-musiqqa maktabida a'lo baholarga tahsil olayotgan bu qizimiz turli tanlovlarda, bellashuvlarda qatnashib, o'z bilim va salohiyatini sinovdan o'tkazib turadi. 2010-yilda «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichi ishtirokchisi bo'lgan bo'lsa, 2011-yilda mazkur festivalning viloyat bosqichi g'olibiga aylandi va respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. «Kamolot» YOIH shahar Kengashi tomonidan o'tkazilgan «Zulfiyaxonim izdoshlari» tanlovining shahar bosqichi g'olibi bo'ldi.

hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, sohaga oid tajriba va yangiliklar haqida nazariy bilimlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Abdug'ani Xolbekov hududiy xalq ta'limi boshqarmalari muassisligi, hammuassisligi va hamkorligida chop etiladigan gazeta va jurnallarning mazmun-mohiyati xususida to'xtalib, bugungi tezkor zamonamiz o'quvchilarining ta'bi o'ta nozik, har qanday nashri ham o'qiyvermaydilar, o'z o'quvchilari auditoriyasini saqlab qolish uchun nashrlar o'rtasida sog'lom ijodiy raqobat bo'lishi lozim, nashrlar sahifalarida tahliliy, analitik maqolalar

borasidagi maslahat va ko'rsatmalari ayni muddao bo'ldi. Shuningdek, O'zDJTU kafedra mudiri, professor Xurshid Do'stmuhammedovning matbuotni rivojlantirishga doir fikrlarini qiziqish bilan tingladik. Ustoz, haqiqiy jurnalist o'z ustida tinimsiz ishlashi, so'zga e'tiborli bo'lishi, xabarlar bilangina cheklanib qolmay, tahliliy maqolalar yozishi lozimligini ta'kidlaganlarida, nechog'li haq edilar...

Seminar ishtirokchilari bahs va munozaralarga boy tarzda o'tgan bunday treninglar tez-tez o'tkazib turilsa, foydadan xoli bo'lmasdi, deya ta'kidladilar.

O'z muxbirimiz

Adabiyotga, she'riyatga ixlosmand bo'lgan Shahinabonuning ijod namunalarini «Shoh bayt», «Buxoronom», «Adolat nuri», «Buxoro yoshlari» gazetalarida hamda «Gulxan», «Bilimdon» jurnallari sahifalarida e'lon qilingan. «Qalbim chechagi», «Ertaklar — yaxshilikka yetaklar» nomli she'riy to'plamlarida Vatan, tabiat, do'stlik, tinchlik mavzuidagi she'riy mashqlari jamlangan.

Uning til o'rganishiga bo'lgan ishtiyoqi ham juda baland. Ingliz, yapon va rus tillarida ham o'z ona tilidek so'zlashish orzusida tinimsiz izlanayapti. Buxoro viloyatida bo'lib o'tgan «Yapon tili notiqlik san'ati» ko'rik-tanlovida muvaffaqiyatli qatnashib, o'rganganlarini yana bir bor imtihon qildi.

Ayni kunlarda poytaxtda bo'lib o'tadigan «Orasta qizlar» festivalida ishtirok etish uchun qizg'in hozirlik ko'rayotgan tinib-tinchimas dugonamiz Shahinabonuga omad yor bo'lsin!

Dilafruz XALILOVA

## SAMARALI TADBIR

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari axborot xizmati xodimlari, hududiy xalq ta'limi boshqarmalari muassisligi, hammuassisligi va hamkorligida chop etiladigan gazeta va jurnallar Bosh muharrirlari hamda markaziy OAV vakillari ishtirok etgan mazkur tadbirda bugungi kun axborot xizmatlari xodimlariga tadbirlar, matbuot anjumanlari, brifinglar tashkil etish, jamoatchilik va OAV xodimlari bilan samarali

ko'proq e'lon qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, deya fikr bildirdilar. Shuningdek, mazkur nashrlar joylardagi mavjud muammolarni, kamchiliklarni ro'y-rost ko'rsatadigan minbarga aylanishi kerak, deya ta'kidladilar.

— Seminar-trening juda qiziqarli, mazmunli o'tdi, — deydi Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi axborot xizmati rahbari, «Istiqlol g'unchalari» gazetasi Bosh muharriri Abduxolij Jo'rayev. — Ayniqsa, «Uzinfocom» markazi bosh mutaxassis Alijon Nazarovning saytlar yaratish



Z. NISHONOVA olgan surat

## Tong yulduzi

### SHODLIK FASLI

Ko'klam chog'i qir oshib,  
Goh bulut kezar shoshib.  
Adir tomon chopamiz,  
Bir-birimiz quvlashib.

Chor-atrofga to'shalgan,  
Maysadan yashil gilam.  
Jilg'alar sho'x jildirab,  
Daraxtlar bo'ldi ko'rkam.

Do'stlar, keling, jam bo'lib,  
Qo'shiling xush tilakka.  
Jo'r bo'lishib hammani,  
Chorlaymiz sumalakka.

**Dilrabo XURRAMOVA,**  
Denov tog'-kon kasb-hunar  
kolleji o'quvchisi



## BILIMDON KICKINTOYLAR



Gulshoda Rahimova Xorazm viloyatining Xiva tumanidagi 1-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi. U darslarni yangi pedagogik texnologiya asosida noan'anaviy usulda olib borishga harakat qiladi. Sinfdan tashqari o'tkaziladigan turli qiziqarli tadbirlar, tanlovlar, o'yin tariqasidagi musobaqalar, «Zakovat» intellektual o'yinlari o'quvchilar bilimni boyitishga hissa qo'shmoqda.

Yaqinda 4-sinf o'quvchilari o'rtasida «Bilimdonlar bahsi» nomli bellashuv o'tkazildi. Unda o'quvchilar «Al-Xorazmiy», «Al-Beruniy» va «Mirzo Ulug'bek» deb

nomlangan guruhlariga bo'linib, ustozlaridan olayotgan saboqlarini amaliy tarzda namoyish etishdi, anchagina bilimga ega ekanliklarini ko'rsatishdi. Bellashuvda «Al-Xorazmiy» guruhi g'olib chiqib, «Oltin toj»ga sazovor bo'ldi.

Hasan va Husan Sapayev, Umrbek Matkarimov, Oyimjon Matvafoyeva, Bobir Qodirberganov, Bobir Mirzayev, Sevinchoy Erkinova, Ollonazar Masharipov, Gulirayhon Boltayeva singari o'quvchilar berilgan savollarga zukkolik bilan to'laqonli javob berib, olqishlarga sazovor bo'lishdi.

Maktabning yosh bilimdonlari kelgusida oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Zakovat» intellektual o'yini ishtirokchilariga aylanishsa ham, ajab emas. Biz esa ularni qo'llab-quvvatlab turamiz.

Yulduz RAHMONOVA

## OZODANING AHDI

«Sarishta qiz – farishta qiz» degan maqolni eshitganmiz? Ayniqsa, qiz bola voyaga yetayotgan uyning saranjom-sarishta bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Men sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan qiz bu odatlardan salgina chetlab o'tishni istaydi.

Uning ismi Ozoda-yu, lekin qilayotgan ishlari ismiga mos emas. Har kuni o'rnidan qo'zg'almasidan, yuz-qo'llaringni yuv, o'rin joylaringni yig', sochlaringni tara, deyidigan oyisining tanbehleri ham yoqmaydi. «Nega endi har kuni odam yuz-qo'lini yuvishi kerak? Nega hammaga xushmuomala bo'lishim kerak?» deb o'ziga-o'zi savol bergani-bergan.

Kunlarning birida tozalik sardori hamma o'quvchilarning tozaligini tekshirib chiqdi. Ozoda esa betartib, besaranjomligidan sinfdoshlari oldida uyatga qoldi. O'shandagina u onasining tanbehlariga quloq solmaganligidan afsuslandi. Shu voqea sabab u yomon odatlarini tashlab, toza va saranjom qiz bo'lishga ahd qildi.

**Umida AKROMOVA,**  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi  
26-maktab o'quvchisi

Men sevimli nashrim «Tong yulduzi»ni har bir sonini qoldirmay o'qib boraman. Ko'pgina tengdoshlarim bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanishlari haqida yozib yuborishadi. Kimdir hunar o'rgansa, yana birov ota-onasiga dastyorlik qiladi. Ayrim tengdoshlarimning esa chet tillarini o'rganishga astoydil kirishib ketishgani meni juda quvontirdi.

## ORZULARIM BIR OLAM

Men darsdan bo'sh vaqtlarimda she'r yozish va rasm chizishga qiziqaman. Ijod namunalarim biroz tahrirga muhtoj bo'lganligi bois, qalamimni yanada charxlash maqsadida ko'plab badiiy kitoblar mutolaa qilyapman. Orzularim bir olam. Ulardan eng asosiysi esa sevimli nashrimda yozgan she'rilarim va chizgan rasmlarimning chop etilishidir. Men bunga astoydil bel bog'ladim.

**Sarvinov SAMANDAROVA,**  
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi  
45-umumta'lim maktabining  
5-«A» sinf o'quvchisi



## AVTOMASHINALARIMIZ BILAN FAXRLANAMAN



Bir kuni darsdan tashqari mashg'ulot paytida ustozimiz bizga: – Qanday rusumdagi avtomashinalarni yaxshi ko'rasizlar? – deya savol berdi.

Shunda sinfdoshlarimdan biri «Mercedes», yana kimdir «Xunday» deya sanay ketishdi. Menga esa o'zimizning yurtimizda ishlab chiqarilayotganlari yoqishini aytdim. Ustozimiz mavzuga yakun yasar ekanlar:

– Dunyo bo'yicha bir nechta mamlakatda, jumladan, O'zbekistonimizda ham avtomashina ishlab chiqariladi. Ularning hammasi bir-biridan chiroyli, rang-barang. Ammo o'zimizniki yanada qadrliroq, faxrlansak arzigudek.

Ustozimning gaplaridan keyin mashinalarimiz ko'zimga yanada chiroyli ko'rinib ketdi.

**Madinabonu UMRZOQOVA,**  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
131-maktabning 2-«B» sinf o'quvchisi



## YURT KORIGA ARAYMAN

Ustozlarimiz hech kimning ilm-ma'rifatli kishilarchalik o'z ota-onasiga, xalqiga nafi tegmasligini ko'p takrorlaydilar. Darhaqiqat, kimki o'z ota-onasiga yaxshilik qilishni istasa, eng avvalo, tinimsiz o'qib o'rganishi, izlanishi zarur. Men ham ota-onam, ustozlarim o'gitlariga quloq tutib, kelajakda Vatanim koriga yaraydigan inson bo'laman. Buning uchun, avvalo, yaxshi o'qishim, ilm yo'lidagi barcha qiyinchiliklarni sabr va matonat bilan yengib o'tishim lozim. Ana shunda barcha o'yilgan orzularimga yetaman.

**Jaylonbek ABDULLAYEV,**  
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi  
33-maktabning 6-«V» sinf  
o'quvchisi

## O'QUVCHIMNI MAQTAGUM

Bugun maktabimizning 6-«B» sinfidagi tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchi qizimiz Shohida Abdullayeva haqida bolalar sevib o'qiydigan gazetaga yozgim keldi. Uni boshlang'ich sinflarda o'qib yurgan kezaridanoq kuzataman. Iqtidori, intiluvchanligi, faolligi, a'lo baholarga o'qiyotgani meni quvontiradi. Uning ba'zi ijodiy izlanishlari, tasviriy san'at bilan shug'ullanishidan tengdoshlari o'rnak olishmoqda.

Yurtimizning Beshuydek chekka bir qishlog'ida ham shunday iqtidorli farzandlar kamol topayotganidan faxrlanamiz. Shohidaga esa kelajak hayotida muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

**Niyozgul YUSUPOVA,**  
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi  
38-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



# MAKTABDA

# BIR KUN

O'quv yili poyoniga yetayotgan ayni kunlarda umumta'lim maktabi bitiruvchilarining mustaqil hayot bo'sag'asidagi maqsad va rejalari bilan o'riqlashish niyatida Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 41-maktabga yo'l oldik.

Bilim maskaniga kiraverishda «Bitiruvchilar doskasi»ga ko'zimiz tushdi. Unda turli kasb-hunar kollejlari haqida ma'lumot, test savollari, o'quvchi va ota-onalarga maslahatlar berilgan edi. Maktab psixologi Vazira opa Odilova bilan suhbatlashib, mazkur o'quv yilida 9-sinf o'quvchilari uchun kasbga yo'naltirish fani kiritilgani, kasb oylaklari o'tkazilayotgani, shanba — ota-onalarga maslahat kuni ekanligi haqida bilib oldik.

— Bu o'quv yilida ta'lim maskanimizni 234 nafar bitiruvchi yakunlaydi. Ularning 21 nafari akademik litseyga, qolganlari kasb-hunar kollejlari haqida hujjat topshirishni rejalashtirishgan, — deya bizni 9-«V» sinf o'quvchilariga kasbga yo'naltirish fanidan saboq berayotgan Gulicheva opa Hayilmuhammedovaning darslariga taktik oldilar. Fursatdan foydalanib, bitiruvchilarni suhbatga tortdik.



**Nigora PO'LATOVA:**  
— 4-sinfdan ingliz tiliga qizi-qaman. Buni o'z vaqtida payqagan ustozim menga to'g'ri yo'nalish berganlari bois, kelajakda tarjimonlik kasbini egallash niyatidaman. Ammo, avvalo, hunar egallash maqsadida ayni paytda tibbiyot bilim yurtiga hujjat topshirmoqchiman.



**Begzod TOLIPOV:**  
— Ota-onam aytganlaridek, yigit kishi hunarli bo'lmog'i lozim. Men mashinasozlik mutaxassisligini tanladim. Lekin san'atga ham qiziqishim baland. Sinf rahbarimiz Umida opa Nurmatova menga keyinchalik san'atda ham o'zimni sinab ko'rishim mumkinligini, zero, kuy-qi' shiq doimiy hamrohimiz ekanini uqtirdilar. Bugungi kunda har birimiz hunarli, yetuk mutaxassis bo'lmog'imiz juda muhim.



**Mohira SAIDOXUNOVA:**  
— Maktablardagi tadbirlarda boshlovchilik qilaman. Bir yildan buyon «Toshkent» telekanalidagi «Tengdoshlar» ko'rsatuvida muxbirlik qilmoqdaman. Qiziqish va qobiliyatimdan kelib chiqib, jurnalistika sohasini tanladim.



tanlash-u bilim egallashda bizga hamisha ko'makchi-yu komillikning kaliti bo'lgan kitob haqidagi bayramga sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyev tashrif buyurgan ekanlar.

Bugun XXI asrning yetuk mutaxassisi bo'lish uchun ko'pgina talablarga javob berish, imkoniyat va shart-sharoitlardan unumli foydalanish lozimligini anglab yetayotgan kelajagimiz egalariga omad tilab xayrlashar ekanmiz, maktab rahbari Gulnoza opa Muzaffarova va ma'naviy ishlarga bosh Ziyoda opa Toshva bizni maktabning faollar zalida o'tayotgan tadbirga taklif etdilar. Buni qarangki, kasb

Tadbiri 4-«V» sinf o'quvchilari ustozlari Dilobar opa Komiljonova boshchiligida tashkillashtirishibdi. Kichkintoylar kitob haqidagi fikrlarini hatto ingliz tilida ham bayon etib, turli sahna ko'rinishlari namoyish etishdi. Sevimli adibimiz ta'rif berganlariday, kitobxonlar maskani-yu tadbirlarga boy maktabda bir kunimiz shu tariqa yakunlandi.

**QIZLARXON**

## JAVOBINGIZ TAYYORMI?

Bitiruvchi! Bugun uning oldida turgan eng asosiy masala to'g'ri kasb tanlashdir. Yakunlanib borayotgan o'quv yili ham o'qituvchi-yu ota-onalar, mutaxassis-u maktab psixologlarini bu mas'uliyatli vazifani hal etishda o'quvchilarga ko'maklashishga undamoqda.

Kuni kecha ana shu maqsadda Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 24-maktabda «Dunyoda kasblar ko'p...» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Bitiruvchi sinflar o'rtasida o'tkazilgan bellashuvda «Usta» va «Tadbirkor» guruhlari o'zaro bellashib, ularning a'zolari o'z mahallalarida istiqomat qilayotgan turli kasb egalari haqida hikoya qilishdi.

— Bizning «Mirzabuloq» mahallamizda yashaydigan qo'li gul tikuvchi Feruza opa Qudratovaga barcha qiz-juvonlar havas qiladi, — deya hikoyasini boshladi Durdona Burxonova. — Ko'p yillardan buyon kasbini e'zozlab, mahallamiz ahliga beminnat xizmat qilib kelayotgan chevar onaxonga shogird tushishni, ulardek mohir hunarmand bo'lishni ko'pchilik qizlarimiz niyat qilishadi.

— «Ketmonchi» qo'rg'oni ahli Abdumalik aka Abdug'aniyevni «Usta-temirchi» deb bilishadi. U kishi shu hunar tufayli el orasida obro'-e'tibor topganlar, — dedi Shahzod Esonboyev.

— O'qituvchimiz Shuhrat Azamatov darsdan bo'sh vaqtlari ham bizga duradgorlik kasbining sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda, — deydi Murod Nazarov. — Duradgorlik kasbi bilan shug'ullanish jon-u dilim.

Tadbir so'ngida o'quvchilarga maktab amaliyotchi psixologi Saida opa Umarova tomonidan anketa savollari tarqatildi. Unda «Siz kim bo'lmoqchisiz?», «Ota-onangizning kasbi sizga yoqadimi?», «Nimalarga va qaysi fanga qiziqasiz?», «Kasbni puxta egallash uchun sizningcha nimalarga e'tibor berish lozim?» kabi savollar bor edi.

Siz-chi, aziz o'quvchilar, kelajagingizni belgilab berguvchi ushbu savollarga javob tayyorlab qo'rganmisiz? Zero, bugungi shart-sharoit va imkoniyatlar keng bo'lgan davrimizda Sizdan faqat to'g'ri tanlov, o'qish, o'rganish, izlanish talab qilinadi.

**Abdulla SAIDOV,**  
Jizzax viloyati

## KASBLAR TANLOVI

Umumta'lim maktabini tamomlayotgan har bir o'g'il-qiz o'zining qiziqishi, iqtidoriga qarab kelajakda biror-bir kasb egasi bo'lishni maqsad qiladi. Bu yo'lda ustozlari, va ota-onasining o'gitlariga quloq tutib, o'qib-izlanadi. Ta'lim maskanlarida kasbga yo'naltirish mavzusida o'tkaziladigan tadbir va uchrashuvlarning ham o'quvchining kasb tanlashida o'rni beqiyos.

Barcha ta'lim maskanlarida bo'lgani kabi poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 162-maktabda ham «Obod turmush yili» munosabati bilan bir qator tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Kuni kecha bu yerda «Orasta qizlar» to'garagi qoshida «Qiz bolaning kasbi — uning baxti» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Ayni paytda umumta'lim maktablarida kasblar oyligi o'tkazilayotgani bois, o'qituvchi Xolida opa Abdurahmonova tomonidan tashkillashtirilgan mazkur tanlovda asosan, o'quvchi qizlarni kasbga yo'naltirish bosh mavzu qilib olindi.

Ta'lim maskanida tahsil olayotgan beshta 8-sinf o'quvchilari sartaroshlik, pazandachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, erkin mavzu kabi shartlar bo'yicha o'zaro bellashishdi. Shuningdek, qo'li gul chevar qizlar tomonidan tayyorlangan ko'rgazma namoyishi tadbir qatnashchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Tanlov yakunida Zebo Bo'ronova rahbarlik qilayotgan 8-«A» sinf qizlari hay'at a'zolari tomonidan g'olib deb topildilar. Ma'naviyat ishlari bo'yicha rahbar muovini Surayyo Rahmatullayeva ishtirokchi qizlarning o'qishlariga muvaffaqiyat tilab, «Faxriy yorliq», kitob hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirladi.

**Dilorom HOTAMOVA**



Gulra'no ZOKIROVA chi'gan rasm

# TERAN NIGOH

Zamon o'zgarimoqda, deymiz. Aslida-chi, zamon emas, ayrim yoshlarimiz o'zgarishmayaptimikan? Bugungi globallashuv davrida turli kompyuter o'yinlarini o'ynab, internet qarshisida umrini bekor o'tkazayotgan yoshlar oramizda, afsuski, uchrab turadi. G'arbga taqlid qilib kiyinayotgan, so'zlashayotgan tengdoshlarimni ko'rib, o'ylanib qolaman: bu holni qanday baholash mumkin? Bunga har kim o'z nigohi bilan qaraydi. Kimdir zamonaviylik deb bilsa, yana kimdir, to'qlikka sho'xlik, deya baholaydi. Menimcha, buning ildizi oilaga borib taqaladi. Xalqimizda «Nima eksang, shuni o'rasan» degan purma'no naql bor. Haqiqatan ham farzandi bilan turli noma'qul seriallarni tomosha qilayotgan, unga kuniga ikki-uch ming so'm pul tutqazib, uni nimalarga sarflayotgani bilan qiziqmayotgan, do'sti kimligini, kun bo'yi nimalar bilan mashg'ul bo'layotganini surishtirmaydigan ota-onalar, kun kelib, afsus-nadomat chekib qolishmami?



Bu gaplarim bilan ota-onalarimizni ayblash fikridan yiroqman. Bunga haqqim ham yo'q! Lekin bizni oq yuvib, oq taragan, o'zi yemay yedirgan, kiymay kiydirgan ota-onalarimiz kelgusida o'zlarining e'tiborsizliklaridan aziyat chekib qolmasinlar, deymen, xolos. Qolaversa, biz yoshlar ham ota-onalarimiz mehriini suiste'mol qilmaylik. Turli hoyu havaslarga berilmaylik. Kompyuter va internetdan maqsadli foydalanib, bilimimizni boyitib, yurtimizning nurlil kelajagiga o'zimizning munosib hissamizni qo'shaylik. Toki, ota-onalarimizga chin ma'noda suyanch, tayanch bo'la olaylik!

Siz nima deysiz, aziz tengdoshim?

Nilufar MARDONOVA,  
Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi  
13-maktabning 9-sinf o'quvchisi



Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 200-maktabda fantast yozuvchi va olim, talaygina ixtirolar muallifi Husan Tursunov rahbarligida yosh fantast va ixtirochilar to'garagi faoliyat yuritmoqda. G'aroyib vaziyatlarga boy fantastik hikoyalar yozishni mashq qilayotgan to'garak a'zolari insonlarga foyda keltiruvchi ixtirolar qilishni orzu qilishadi.

Quyida ana shunday hikoyalardan birini o'qiydiz.

## KOMPYUTER VASVASASI

Hammasi Sherzodga yaxshi o'qigani uchun kompyuter olib berishgan kundan boshlandi. U erta-yu kech kompyuter o'yinlaridan bosh ko'tarmay qo'ydi. Uning sevimli o'yinlari «Kontr» va «Mafiya» edi. Darslariga bee'tibor bo'lib, ota-onasidan yashirincha kechalar kompyuter o'ynashga odatlandi. Natijada, darslarda uxlab qolib, baholari pasayib ketdi.

Shunday kunlarning birida u tuni bilan o'yindan chiqmay, o'zining g'oyib bo'lib qolganini sezmay qoldi. Uxlab qolgan bo'lsam kerak, deya ko'zini ochib, qo'lidagi avtomati bilan «Kontr»ning ichiga tushib qolganini angladi. Atrofdan quloqni qomatga keltirgudek o'q va portlash ovozlari eshitilardi. Binolar ichidan dushmanlar chiqib, uni har tomondan o'rab olishayotganini ko'rdi va qo'rqqanidan qurolini tashlab, «Voydod, oyijon», deb qochib qoldi. Uzoq yugurib, bino ostidagi tashlandiq va qorong'i yerto'laga yashirindi.

Birozdan keyin ko'zi qorong'ilikka o'rganib, burchakka biqinib olgan yana ikki bolani ko'rdi.

– Sizlar qanday qilib bu yerga kelib qoldinglar? – so'radi Sherzod ko'zlarini katta-katta ochib o'tirgan bolalardan.

– Bilmaymiz, – dedi ulardan biri yig'lamsirab. – Tinimsiz kompyuter o'yinlarini o'ynab, bu yerga qanday kelib qolganimizni ham sezmay qoldik.

– Kompyuterda tugmalarni bosish oson edi. Bu yerda qurollardan insonlarga qarata o'q ota olmadik, – dedi ikkinchisi. – Zo'rg'a qochib, shu yerda jon saqlayapmiz. Qornimiz och, suvimiz ham yo'q.

Sherzod bolalarga yaqin kelib, ulardan birini tanidi, qo'shnisi Akrom ekan.

Sherzodning kompyuteriga «Kontr»ni o'tkazib bergan ham shu bo'ladi.

– Tashqariga chiqsak, bizga hujum qilishlari aniq, – dedi Sherzod xo'rsinib. – Ular ayab o'tirishmaydi. Chunki biz ularni o'yin

davomida necha martadan qirib tashlaganmiz.

Uchovlon bu yerdan qanday chiqib ketish haqida uzoq bosh qotirib, hech qanday yechimga kela olmadilar.

– Sherzod, biz ikki kundan beri uxlamayapmiz. Sen qorovullik qilib tursang, biz biroz mizg'ib olardik, – dedi Akrom.

Sherzod rozi bo'ldi, bolalar birpasda pishillab uxlab qolishdi. Sherzod xabar olish ilinjida qo'rqa-pisa tashqariga chiqdi va yemak qidirib, katta bino ichiga kirdi. Shu payt qarshisida avtomat ushlagan va yuziga niqob taqqan kimsa paydo bo'ldi. U qurolini Sherzodga o'q'talib, barmog'i bilan tepkini bosmoqchi bo'ldi.

– Amakijon, iltimos, otmang, meni qo'yib yuboring. Ikkinchi bunday o'yinlarni o'ynamaslikka so'z beraman, – deya jon talvasasida baqirdi u.

Niqobli kimsa bir zum hayron bo'lib, atrofga qaradi va yana sovuqqonlik bilan Sherzodni mo'ljalga olib, o'tishga taraddudlandi.

– Voydod, oyijon, dadajon, yordam beringlar, qutqaringlar... Stulidan yiqilib, polda ayyuhannos solib baqirayotgan Sherzodni oyisi suyab turg'azdi.

– Ha, bolam, tinchlikmi? Nega baqiryapsan? Dadangga aytib, shu kompyuterini yo'qotmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi.

Sherzod hushiga kelib, tirik qolganiga quvondi. Qarshisida onasini ko'rib, voqealar tushida sodir bo'lganini angladi. Endi hech qachon bunday o'yinlarni o'ynamaslikka ahd qildi. Keyin kompyuterini o'chirmoqchi bo'lib ekranga nazar tashladi va u yerda paydo bo'lgan yozuvni o'qidi:

...Sherzod, bu yerdan qanday chiqib ketding? Bizga ham yordam ber...

Sherzodning yuragini tark etgan qattiq qo'rquv tuyg'usi yana qaytdi va u hushidan ketib, polga gursillab quladi.

Jamoliddin MUHIDDINOV,  
6-«A» sinf o'quvchisi



## BIR FARZANDGA UCH KITOB

Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 289-umumta'lim maktabi o'ziga xos an'analarga ega bilim maskanlaridan hisoblanadi. Mazkur bilim dargohida o'quvchilarga puxta bilim berish bilan bir qatorda, ular qalbida ona Vatanni, tabiatni sevish, ajdodlar ruhiga ehtirom tuyg'ularini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Taniqli yozuvchi va shoirlar, o'z kasbining ustasi bo'lgan turli shah vakillari bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlar ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda. O'z navbatida bunday sa'y-harakatlar o'z samarasini berib, mazkur maktab o'quvchilari ko'plab tanlov va bellashuvlarda yuqori natijalarni ko'lga kiritmoqdalar.

Yaqinda maktabda «Bir farzandga uch kitob» deb nomlangan ma'rifiy kecha o'tkazildi. Tadbir ishtirokchilari dastlab maktab kutubxonachilari tomonidan tashkil etilgan «Kitoblar – ezigulikka yetaklar» nomli ko'rgazmani tomosha qildilar. 5-sinf o'quvchilari tomonidan buyuk bobolarimizning kitob haqida aytgan purma'no hikmatlaridan namunalar keltirildi. 8-sinf o'quvchilari esa «Podshohning uch ombori» nomli ertak asosida ajoyib sahna ko'rinishi namoyish etdilar. «So'zdan so'z top» intellektual o'yinida bellashgan 5-sinf o'quvchilari so'z birikmalarini yasashda nechog'li bilimdon ekanliklarini namoyish etdilar. Bu o'yinda g'olib chiqqan Mohichehra Ma'murjonova maktab ma'muriyatining esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi. Tadbirda Shamsiddin Asimov ham «Eng faol ota» nominatsiyasining g'olibi bo'lib, «Faxriy yorliq»qa sazovor bo'ldi. Iye, bunday nominatsiya ham bormidi, deya hayron bo'layotgandirsiz?! Endi gapning indallosini eshiting: Shamsiddin aka mazkur maktabning 9-«G» sinfida tahsil olayotgan a'lochi, faol o'quvchilardan biri Aida Kamolovning otasi. Aidaning o'z shaxsiy kutubxonasi bo'lib, unda 400 dan ortiq badiiy kitoblari bor. Ularning aksariyatini otasi sovg'a qilgan. Bunday otani mukofotlamay bo'ladimi, axir?!

Tadbir davomida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Sanoat opa Qurbonova tomonidan buyuk bobomiz Alisher Navoiyning o'n tomlik asarlarining multimedia ko'rinishida taqdimoti o'tkazildi. Tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad, o'quvchilar qalbidagi kitobga bo'lgan mehri yanada oshirishdan iborat edi. Nazarimizda, maqsad sari dadil qadamlar qo'yildi. Buni biz jaiji qo'lchilari bilan kitobini bag'riga bosgancha ketayotgan bolajonlarning yuz-ko'zlaridan anglagandek bo'ldik.

Yusuf ABDULLAYEV

## BOSHIMIZ KO'KKA YETDI

«Sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyev hamda taniqli adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulovning maktabimizga tashrifi haqiqiy bayramga aylanib ketdi. 2-aprel – Xalqaro bolalar kitobi kuni munosabati bilan maktabimizda bo'lib o'tgan mazkur ijodiy uchrashuv nafaqat biz o'quvchilarga, balki ustozlarimizga ham bir olam zavq ulashdi. Yoshlikdan qadrdon do'st bo'lgan ijodkorlarimiz qiziqarli bolalik xotiralaridan so'zlashdi, o'zimizni qiziqtirgan barcha savollarga javoblar oldik. Hurmatli adiblarimizning bizga bo'lgan samimiy munosabatlaridan boshimiz ko'kka yetdi. Ijodkor o'quvchilarimiz she'riy mashqlaridan o'qib berishdi. Ayniqsa, maktabimizning eng a'lochi, faol o'quvchilaridan bo'lgan Temurbek Po'latjonovning «Dunyoda yilab» nomli hikoyasi haqida yozuvchimiz iliq fikrlar bildirdilar. Biz ham aziz mehmonlarimizni kuy va qo'shiqlarimiz bilan xushnud qildik».



kollejlarning o'quvchilari yo'limizga peshvoz chiqishdi. 21-maktabdagi adabiyot bayramiga ko'rilgan taraddudan quvondik. Ijodkorlarning suratları, donishmandlar hikmati bitilgan lavhalar bilan bezatilgan faollar zalidagi 600 dan ziyod o'g'il-qizning yuz-u ko'zlaridagi quvonchni, hayajonni ko'rib, ko'nglimiz tog'lardek yuksaldi. Saidabonuning tashabbusi bilan boshlangan she'rxonlik, kitobxonlik, mushoira kechasi uch soatdan ziyod davom etdi. O'quvchilar Hazrat Navoiy, Bobur, Boborahim Mashrab, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat g'azallaridan o'qidilar. Bu maktabning nafaqat o'quvchilari, adabiyot

## TASHABBUSKOR QIZ

– Qizim Saidabonu Saidkamolova bilan tanishuvimiz tasodifiy bo'ldi. U mening uy telefonim raqamini topib, qo'ng'iroq qildi. Adabiyotga, she'riyatga qiziqishini, uncha-muncha she'rlar ham mashq qilib turishini aytdi. – Men «Olmos»dek go'zal go'shaning farzandiman. Qishlog'inning ko'rk-u tarovatini madh etgim keladiyu, tajribam kamlik qilib, she'rga tushirolmayman.

Bobojon, biz tahsil olayotgan 21-maktabga bir kelsangiz, o'rtoqlarim bilan tanishsangiz. Biz adabiyot ixlosmandlariga maslahatlar bersangiz, boshimiz ko'kka yetardi, – deya meni so'lim vodiya chorladi. – Shu kunlarda qishlog'imiz biram go'zal bo'lib ketganki, ko'rsangiz, ko'zingiz quvnaydi...

Men Saidabonuga erta boraman, indin boraman, deb yurdim. Bu orada shaddod qizimiz o'zi kabi adabiyot ixlosmandi bo'lgan uch-to'rt dugonasi bilan birgalikda, agar yozuvchi bobomizni maktabimizga olib kelmasangiz, biz kitob o'qimay qo'yamiz, deya qat'iy talab qo'yishibdi ustozlariga. Shogirdlarining qat'iyatidan quvongan muallimlar hokimiyatga murojaat qilishibdi. Shu tariqa meni Olmosga borishga ko'ndirishdi. Bunday e'tibordan boshim osmonga yetdi, adabiyot ixlosmandi bo'lgan bir so'zli qizlarimning peshonalaridan o'pgim keldi. Takliflaridan birida, yolg'iz emas, boshqa yozuvchilar bilan keling, deya tayinlashgandi. Nihoyat, filologiya fanlari doktori, professor Abdug'afur Rasulov va oilalarimiz Ra'noxon, Sanobarxon bilan birgalikda, so'lim qishloq qaydasan, deya yo'lga tushdik. O'sha kunlari Olmosdagi bog'larda o'rik, gilos, nok, behi kabi mevali daraxtlar qiyg'os gullagan, chor-atrof yam-yashil gilam to'shalgandek edi. Bu ajib manzaradan zavqlanib, manzilga yetib borganimizni ham sezmay qolibmiz. Olmosga burilishimiz bilan maktab, litsey va

o'qituvchilari, balki kimyo, fizika, matematika fanidan saboq beradigan ustozlari ham adabiyot ixlosmandi ekanliklaridan nihoyatda ta'sirlanidik.

Tashrifimiz ovozası Olmosdagi boshqa maktablarga va iqtisodiyot yo'nalishidagi kollejga ham yetib borgan ekan. Ayniqsa, 55-maktabdagi ijodiy uchrashuvimiz o'zgacha taassurot qoldirdi. Mazkur ilm dargohi o'quvchilarining ingliz va rus tillarini o'rganish borasidagi havas qilsa arzigulik yutuqlariga guvoh bo'lib, ularning ustoz-muallimlariga tasannolar aytdik.

Ijodiy safarimiz davomida 40 mingdan ziyod aholi umrguzaronlik qilayotgan Olmosning bugungi qiyofasini ko'rib, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy yuksalishning guvohi bo'lib, behad quvondik.

Barcha o'g'il-qizlarimizning Saidabonu va uning dugonalar kabi tashabbuskor bo'lishlarini niyat qilib, ijodkor qizimizning she'rlaridan olib qaytdik. Mayli, ular kamchiliklardan xoli emasdir, hali me'yoriga yetmagandir, lekin Saidabonudagi ona Vatan madhini, Istiqlolni, yurtimizdagi yuksalishlarni kuylashga bo'lgan intilishdan quvonsak arziydi...

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi

### TASHRIRIYATDAN:

Otaxon yozuvchimizning Namanganga qilgan ijodiy safari taassurotlarini maroq bilan tingladik, ustoz adiblarimizga chin dildan havas qildik. Iqtidor, iste'dod, tinimsiz qilingan mehnat insonni mudom ulug'lashiga yana bir bor amin bo'ldik. Olmoslik yosh qalamkashimizni rag'batlantirish ma'nosida she'rlaridan o'quvchilar hukmiga havola qilyapmiz.

Namangan viloyati, Chust tumanidagi 21-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Yulduz HAYDARALIYEVAdan kelgan ushbu maktubni o'qib, ustoz adiblarimiz g'ayratidan hayratlanib turganimizda, tahririyatimizga Xudoyberdi To'xtaboyevning o'zlari kirib keldilar. Bolalar nashrlarining ijodkorlari bolalardek sodda, samimiy bo'lishadida, tahririyatimiz xodimlari ustozni ko'rib, suyuqli bobosini ko'rgan nabiralarday hayajonlanib, quvonib ketishdi.

– Hormang, otaxon, Chustning olis Olmos qishlog'iga qilgan safaringiz toliqtirib qo'yadimi? – so'radik u kishining hayratini oshirib.

– Iye, siz bu safarim haqida qayerdan bildingiz? – ajablandilar ustoz.

– Mana, o'g'il-qizlarinig allaqachon maktub yozib yuborishibdi, – deya Yulduzxondan kelgan xatni ko'rsatdik.

– Obbo shovvozar-ey, mendan chaqqonlik qilishibdi-da, – kuldilar otaxon va safar tafsilotlarini so'zlay ketdilar.



## USTOZIM

Bizni a'lo o'qishga chorlagaysiz, ustozim, Yo'limizda chiroqdek porlagaysiz, ustozim, Saboqlaringiz yodda saqlagaymiz to' abad, Ishonchingiz oqlaymiz kelajakda biz albat.

## NON

Dasturxon to'kin bo'lar, Singlimning ko'ngli to'lar. Ukam ham mamnun bo'lar, Kulcha yopganda oyim.

Non qadrini bilamiz, Uni e'zoz qilamiz. Ko'zga surtamiz doim, Kulcha yopganda oyim.



## KITOB

Kitob bilim bulog'i, Aqlimizni charxlaydi. Fikrimizni boyitib, To'g'ri yo'lga boshlaydi.

«Kitob – aql chirog'i» – Xalqda shunday hikmat bor. «Oftob» bilan do'stlashsak, Sira ko'rmaymiz zavol.

Shunday ekan, do'stlarim, Ergashinglar bizlarga. Kitob ziyo nurlarin, Sochar o'g'il-qizlarga.

Saidabonu SAIDKAMOLOVA,  
Namangan viloyati, Chust tumanidagi  
21-maktabning 6-sinf o'quvchisi

# O'N MEDAL, IKKINCHI O'RIN

**Qozog'istonda boks bo'yicha 15-16 yoshli o'smirlar o'rtasida yakunlangan Osiyo chempionatida to'rt oltin, besh kumush va bir bronza medallarini jamg'argan O'zbekiston terma jamoasi umum-jamoa hisobida ikkinchi o'rinni egalladi.**

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan doimiy e'tibor bois sportchilarimizning xalqaro maydonlarda erishayotgan natijalari tobora

yuksalib bormoqda. Xususan, 2004-yilda Vyetnamda ilk marotaba tashkil etilgan 16 yoshgacha o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida yosh bokscharimiz uch kumush va bir bronza medal jamg'argan bo'lsa, bu gal medallar soni o'ntaga yetdi.

Osiyo chempionatida qit'amizning o'n to'rt mamlakatidan yuz nafarga yaqin bokschi 13 vazn toifasida kuch sinashdi. 52 kilogramm vazn toifasidagi bellashuvlarda qatnashgan Javohir Karimov quvaytlik Bander al-Mutayriy, qozog'istonlik Stanislav Kalitskiy, yaponiyalik Xinata Marutanini mag'lubiyatga uchratib, final bahsida tojikistonlik Bahodir

Usmonovni katta ustunlik bilan yengdi va Osiyo chempioni bo'ldi.

Final uchrashuvlarida ishtirok etgan hamyurtlarimizdan Ulug'bek Rahimov turkmanistonlik Muhammad Berdiboyevni, Kozimbek Mardonov qozog'istonlik Qodirbek Sodiqbekovni, Obidjon Tohirov mezbonlar vakili Aydos Duashni mag'lubiyatga uchratib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

O'zbekiston terma jamoasi a'zolaridan Sulaymon Latipov, Sherzod Komilov, Muzaffar Rashidov, Eldor Merjonov, Bahromjon Fozilov kumush medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Iqboljon Xoldorov bronza medal bilan cheklandi.

## «SIZ POLVONLARINGIZNI BILASIZMI?» tanlovi yakunlandi

Yurtimizda milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor samarasida o'zbek kurashi, uluq-ko'pkari, o'zbek jang san'ati kabi milliy sport turlarimiz xalqaro miqyosga olib chiqilgani xalqimizning qaddi va qadrini tiklashga, obro'-e'tiborini yuksaltirishga xizmat qilayotgani ayni haqiqat.

Shuning uchun o'zbek kurashini yoshlarimiz orasida ham keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

«Polvonlar Milliy Ensiklopediyasi» jamiyati tomonidan milliy sport turlarining rivojlanish bosqichlari, an'ana va maktablari, polvonlarimiz faoliyatini chuqur o'rganish, ularni keng targ'ib etish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'zbekistonlik polvonlar haqida qator kitoblar nashr etilib, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Ayni

paytda ta'lim muassasalari va mahallalarda besh mingdan ziyod «Yosh polvonlar» to'garaklari, kurash ustalari hayoti va faoliyatiga oid ko'plab «Faxriy polvonlar burchagi» tashkil qilingan.

Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Polvonlar Milliy Ensiklopediyasi» jamiyati, Madaniyat va sport ishlari, Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan qator davlat va jamoat tashki-

lotlari hamkorligida umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida «Siz polvonlaringizni bilasizmi?» respublika tanlovi o'tkazildi.



Kuni kecha O'zbek Milliy akademik drama teatrida mazkur tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

«Siz polvonlaringizni bilasizmi?» tanlovida umumiy o'rta ta'lim mak-

tablari o'rtasida birinchi o'rin Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi 2-, ikkinchi o'rin Farg'ona shahridagi 28-, uchinchi o'rin Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi 9-umumta'lim maktablariga berildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi 2-akademik litsey jamoasi g'olib bo'ldi. Qolgan o'rinlar Navoiy

va Namangan olimpiya zaxiralari kollejlari nasib etdi.

**G'olib va sovrindorlarga esdalik sovg'alari topshirildi.**

**Shoh MUHAMMAD tayyorladi**

Bugun mamlakatimizda Sharq yakkakurashlaridan biri – aykido sport turi bilan ko'plab yoshlarimiz shug'ullanib kelmoqda. Bu esa ularni har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib kamolga yetishiga xizmat qilmoqda.

Poytaxtimizdagi MHSK va Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi sport zalida murabbiy Otabek Mahamadiyev qo'l ostida ham ko'plab iqtidorli yoshlar ushbu sport turining sir-asrorlarini chuqur o'rganmoqdalar. Ayni paytga qadar ustozning ko'plab shogirdlari respublika va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelishmoqda.

Yaqinda Otabek Mahamadiyev o'z shogirdlari bilan Tailand poytaxti Bangkok shahrida bo'lib o'tgan jahon chempionatida yurtimiz sharafini munosib himoya qilib, bir nechta medallarni qo'lga kiritib qaytishdi. Xususan, 11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasidagi musobaqada tatamiga chiqqan Abdulhamid Rashidov barcha raqiblarini

ortda qoldirib, final bahsida mezbon yurt vakiliga qarshi jiddiy kurash olib bordi. Keskin o'tgan jangda yurtdoshimiz o'zining bor iqtidorini namoyon etib, raqibini katta ustunlik bilan mag'lubiyatga uchratdi. Shuningdek, Habib Qurbonov, Baxtiyor Malikov hamda Shohida Rahimova ham sovrindorlar qatoridan o'rin egallashdi.

– Aykido sport turi bilan shug'ullanayotganimga hali uncha ko'p vaqt bo'lmasa-da, bir nechta musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritdim. Ayniqsa, Tailandda o'tkazilgan jahon chempionatidagi g'alabam men va yaqinlarimni behad quvontirdi, – deydi poytaxtimizning Uchtempa tumanidagi 203-maktabning 4-sinf o'quvchisi Abdulhamid Rashidov.

**Yosh sportchilarimizga navbatdagi musobaqalarda omadlar tilaymiz!**

**Madina MIRZAQOBILOVA**



Buvijon va buvajonlarimiz, otalarimiz dasturxon atrofida qo'llarini fotihaga ochishar ekan, avvalo, yurtimizda tinchlik, xotirjamlik bo'lsin, deya niyat qilishadi. Bu purma'no tilaklar hikmatga boy. Zero, tinchlik, xotirjamlik bor joyda obodlik bo'ladi-da.



«Yurt ozod, turmush obod» rasmlar va insholar tanloviga



lari chizgan rasmlardan yo'llabdi.

– Maktabimizda tashkil etilgan tasviriy san'at to'garagi a'zolari o'rtasida «Obod turmush yili»ga bag'ishlab, «Mening oilam» mavzusida tanlov o'tkazdik, – deb yozibdi Ayjamal. – O'zim bu tanlovga boshchilik qildim. Bellashuvchilarning aksariyati 5-, 9-sinf o'quvchilaridan iborat bo'ldi.

XOTIRJAMLIK BOR JOYDA...

Obod ko'ngillarda hayotga o'zgacha zavq-shavq uyg'onadi, ezgu ishlarga bosh bo'ladi. Davlatimiz tomonidan ushbu yilning «Obod turmush yili» deb nomlanishi ham bejiz emas, albatta.

Gazetamizda ezgu niyatlar ila e'lon qilgan «Yurt

ozod, turmush obod» rasmlar va insholar tanloviga o'quvchilarimizning bafarq emasliklari bizni behad quvontirmoqda.

Gazetamiz muxlisi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Ayjamal Karamatdinova maktabdash-

Hay'at a'zolari eng yaxshi ishlarni saralab olishdi. 7-sinf o'quvchisi Naslimxon Qurbaniyazova, 5-sinf o'quvchisi Mehribon Qaniyazova hamda mening chizgan rasmlarim g'olib deb topildi va «Faxriy yorliq» bilan taqdirlashdi.

Aziz o'quvchilar! Sizning ham maktabingizda ana shunday tanlovlar o'tkazilyaptimi? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

OLMOS

Yosh kulollarning Respublika ko'rgazmasi



Yurtimizda o'z noyob iqtidori, iste'dodini xalqaro miqyosdagi nufuzli ladbirlar, yirik tanlovlar, festivallarda namoyish etishga muvaffaq bo'layotgan intiluvchan o'g'il-qizlarimiz safi tobora kengayib bormoqda. Yoshlarimiz ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida turli illat ko'chalaridan asrash maqsadida ko'plab ko'rgazmalar tashkil etilyapti.



OLTIN QO'LLAR MO'JIZASI

Kuni kecha O'zbekiston Madaniyat va san'at ko'rgazmasi binosida yosh kulollarning «Obod turmush yili»ga bag'ishlangan respublika ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi hamkorligida tashkil etilgan ko'rgazmada Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda asarlari munosib deb topilgan yosh kulollar eng sara ishlari bilan ishtirok etishdi.

Farg'ona vodiysi (Rishton va Pop kulolchilik maktablari), Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Shahrisabz kulolchilik maktablari o'quvchilarining ijodiy ishlarini katta qiziqish bilan ko'zdan kechirar ekanmiz, ularni xorijlik mehmonlar ham hayrat va hayajon bilan tomosha qilayotganliklarini ko'rib, qalbmiz faxrga to'ldi.

Manzura UBAYDULLAYEVA

XANDLAR

Bir kishi bolakaydan iltimos qilibdi:

– O'g'lim, mana bu pulga bir dona non olib kelib ber. Mayli, o'zingga ham bitta qo'shib ol. Bolakay novvoyxonadan bir zumda qaytib: – Amaki, non faqat bitta qolgan ekan, mana qaytingiz, – dedi bolakay va bamaylixotir nonini yeb ketaverdi.



Darsga kechikib kelgan bolakaydan o'qituvchi so'radi:

– Ha, Toshmatov, yana darsga kechikdingmi? – Yo'q, ustoz, men o'z vaqtida kelayotgan edim, bezorilar yo'limni to'sib, uy vazifam bilan kundaligimni olib qo'yishdi.

Z.MAMATQULOVA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy  
Kengashi,  
«SOG'LOM AYLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.